Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliylikini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	



TEMIR YO'L TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHDA IMITATION MODEL ASOSIDA TAHLILY YONDASHUV

Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich

Toshkent davlat transport universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya: Temir yo'l infratuzilmasini rivojlantirish zamonaviy transport-logistika tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqolada temir yo'l tarmog'ining samaradorligini oshirishga qaratilgan imitatsion modellashtirish yondashuvi yoritilgan. Model yordamida infratuzilma obyektlarining yuk oqimiga ta'siri, tashish vaqti, xarajatlar va resurslardan foydalanish darajasi tahlil qilinadi. Maqolada SCOPUS bazasidagi tadqiqotlar asosida o'zgaruvchilarning o'zaro ta'siri ko'rib chiqilib, O'zbekistondagi amaliy holatga moslashtirilgan model taklif etilgan. Imitatsion model tarmoqni optimallashtirish va strategik rejalashtirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: temir yo'l infratuzilmasi, imitatsion modellashtirish, yuk oqimi, transport tizimi, logistika, rejalashtirish.

Abstract: The development of railway infrastructure is one of the key areas in modern transport and logistics systems. This article presents a simulation modeling approach aimed at increasing the efficiency of the railway network. The model is used to analyze the impact of infrastructure components on freight flow, transportation time, costs, and resource utilization. Based on research from the SCOPUS database, a customized model reflecting the specific context of Uzbekistan is proposed. The simulation model can serve as a vital tool for network optimization and strategic planning.

Key words: railway infrastructure, simulation modeling, freight flow, transport system, logistics, planning.

Аннотация: Развитие железнодорожной инфраструктуры является одним из ключевых направлений современной транспортно-логистической системы. В данной статье рассматривается подход имитационного моделирования для повышения эффективности железнодорожной сети. С помощью модели анализируется влияние инфраструктурных объектов на грузопотоки, время перевозки, затраты и уровень использования ресурсов. На основе исследований из базы SCOPUS предложена адаптированная модель, отражающая специфику Узбекистана. Имитационная модель может служить важным инструментом для оптимизации сети и стратегического планирования.

Ключевые слова: железнодорожная инфраструктура, имитационное моделирование, грузопотоки, транспортная система, логистика, планирование.

KIRISH

Temir yo'l transport tizimini rivojlantirishning imitatsion modeli sohaga oid uzoq muddatli strategik rivojlanishni boshqarish va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Transport tarmog'i murakkab dinamik tizim sifatida faoliyat yuritadi va turli omillarga bog'liq bo'lib, uni real vaqt rejimida uzluksiz tahlil qilish zarurati mavjud. Shu sababli, temir yo'l transporti tizimini rivojlantirishda imitatsion modellardan foydalanish transportda kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, prognozlash va optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Temir yo'l transportining kompleks tizim sifatidagi faoliyati yuk va yo'lovchi tashish hajmi, harakat xavfsizligi, infratuzilmaning holati, resurslardan foydalanish darajasi hamda transport tarmog'i samaradorligi kabi ko'plab parametrlar bilan chambarchas bog'liq [1].

Tizimdagi o'zgarishlarni real vaqt rejimida baholash, ehtimoliy ssenariylarni modellashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda imitatsion modellardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda transport sohasida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish va transport tizimlarini avtomatlashtirish kabi omillar ushbu modellarning ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Temir yo'l tarmog'ining rivojlanish ssenariylarini tahlil qilish hamda strategik qarorlarni qabul qilishda imitatsion modellar real ma'lumotlar asosida tizim samaradorligini baholash va takomillashtirish imkonini yaratadi [2]. Ushbu modellar yordamida transport tizimidagi mavjud muammolar aniqlanadi, harakat yo'nalishlari optimallashtiriladi va infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonlari tezlashtiriladi. Shuningdek, imitatsion modellar transport tizimida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldindan baholash va prognoz qilish imkonini beradi. Masalan, yuk va yo'lovchi tashish hajmining ortishi sharoitida transport tarmog'ining qanday reaksiya berishi, infratuzilmaga tushadigan yuklamalar ta'siri va texnik xizmat ko'rsatish samaradorligini aniqlash



mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, resurslarni samarali taqsimlash, operatsion xarajatlarni kamaytirish va temir yo'l transportining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Temir yo'l transportida imitatsion modellashirishni quyidagi yo'nalishlarda qo'llash mumkin: yo'l harakatini boshqarish, poezdlar harakat jadvalini shakllantirish, stansiyalarda yuk ortish-tushirish jarayonlarini takomillashtirish, logistika xizmatlarini optimallashtirish. Bunday modellar transport jarayonlarini aniq prognozlash va mavjud infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, imitatsion modellar transport tizimining ekologik barqarorligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Karbon izini kamaytirish, energiya tejankor transport yechimlarini joriy etish va harakatlanish jarayonlarini ekologik me'yorlarga moslashtirishda modellashirish vositalari katta ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Temir yo'l infratuzilmasining strategik rivojlanishini modellashirish, ayniqsa imitatsion usullar orqali, bugungi transport iqtisodiyoti va logistik boshqaruv sohasida dolzarb ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Bu borada xalqaro adabiyotlarda zamonaviy yondashuvlar, algoritmik metodlar va real sektor ma'lumotlariga asoslangan modellashirish tajribalari keng yoritilgan.

Imitatsion modellashirish tamoyillari haqida klassik ishlar qatorida Banks, Carson va Nelson tomonidan taklif etilgan konseptual asoslar muhim o'rin egallaydi. Ular o'zlarining tadqiqotlarida transport tizimlarining murakkab o'zaro ta'sirini simulyatsiya qilish orqali samaradorlikni oshirish mumkinligini asoslab bergan. Ularning modeli logistik yuk oqimlarini boshqarishda kechikish, navbat va resurs taqsimoti kabi omillarni real vaqt rejimida baholash imkonini beradi.

Temir yo'l infratuzilmasi bo'yicha David E. Boyce va Hani S. Mahmassani tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda multimodal transport tizimlari ichida temir yo'lning tutgan o'rni, uning shaharlararo va mintaqaviy transport tarmoqlariga integratsiyasi yoritilgan. Xususan, Boyce 2007-yilda AQShning Illinoys shtati temir yo'l infratuzilmasi asosida taklif etgan model orqali yuk oqimining qaysi segmentlarda tiqilinch yuzaga kelishini aniqlash mumkinligini ko'rsatgan.

Evropa tajribasida esa Jose Manuel Vassallo va Luis Romana tomonidan Ispaniyaning yuqori tezlikdagi temir yo'l tizimlarini modellashirish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholashga doir ishlari diqqatga loyiq. Ular 2012-yilda Madrid–Barselona yo'nalishi misolida qurilish xarajatlari, tashish samaradorligi va ijtimoiy foydani baholovchi imitatsion model ishlab chiqqan. Ushbu modelda yo'lovchi oqimining zichligi, tariflar va vaqt tejankorligi asosiy ko'rsatkich sifatida baholangan.

Markaziy Osiyodagi izlanishlar orasida Nizomiddin Nurmatov tomonidan O'zbekiston temir yo'l tarmog'i bo'yicha olib borilgan ishlar alohida e'tiborga loyiq. U Toshkent–Andijon yo'nalishida mavjud infratuzilmaning transport oqimiga nisbatan yetarlicha samarali emasligini ta'kidlagan va tarmoqni qayta optimallashtirish uchun diskret imitatsion model ishlab chiqqan. Bu modelda rels quvvatidan foydalanish darajasi, vagon aylanish tezligi va vaqt sarfi asosiy omillar sifatida e'tiborga olingan.

So'nggi yillarda Xiao Lin va Yong Qin tomonidan Xitoyda olib borilgan tadqiqotlar esa sun'iy intellekt bilan birlashtirilgan imitatsion modellar orqali temir yo'l transporti samaradorligini oshirish imkoniyatlarini yoritgan. Ularning ishlari yuqori zichlikdagi yuk tashish marshrutlarini bashoratlashda mashinaviy o'rganish algoritmlari va statistik simulyatsiya vositalarini uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilgan.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, temir yo'l infratuzilmasini imitatsion modellashirish orqali rivojlantirish nafaqat texnologik optimallashtirish, balki iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni kompleks hisobga olish imkonini beradi. Har bir model mahalliy kontekstga moslashtirilgan bo'lib, uni O'zbekiston sharoitida qo'llashda demografik zichlik, yuk oqimining mavsumiy o'zgaruvchanligi va mavjud infratuzilmaning holati alohida e'tiborga olinishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Temir yo'l transport tizimini samarali rivojlantirish muammolarini tahlil qilgan milliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari ushbu tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini tashkil etdi. Maqolani tayyorlash jarayonida abstrakt va analitik mushohada, qiyosiy va omilli tahlil, indikativ yondashuv, tanlanma kuzatuv, taqqoslash, iqtisodiy-statistik hamda boshqa tegishli ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Temir yo'l tarmog'ining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotidagi strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu tarmoqni kompleks tahlil qilish, uning rivojlanish istiqbollari belgilash hamda asosiy yo'nalishlari bo'yicha prognozlar tuzish bugungi kunda transport siyosatini shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda. Ayniqsa, o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda temir yo'l tizimining hozirgi holatini chuqur tahlil



qilish, uni zamonaviylashtirish va takomillashtirishga doir ilmiy asoslar ishlab chiqilishi zarur. Bunday tahlillar, bir tomondan, moddiy-texnik resurslar va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mavjud moliyaviy imkoniyatlarni oqilona taqsimlash orqali tarmoqning funksional barqarorligini ta'minlaydi.

Temir yo'l transporti iqtisodiyotdagi ko'plab tarmoqlarning raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yakuniy tannarxida transport xarajatlarning ulushi, shuningdek, yuklarning o'z vaqtida va xavfsiz yetkazib berilishi ishlab chiqaruvchilarning bozordagi ustunlik darajasini belgilaydi. Logistika ishonchiligi, mahsulot aylanmasining ritmiga ta'siri va yetkazib berish tizimining uzluksiz ishlashi zamonaviy iqtisodiyotda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, temir yo'l tizimining barqaror ishlashi nafaqat transport sektori, balki butun iqtisodiy tizim uchun zarur shartdir.

Tizimning samaradorligini oshirish va uni uzoq muddatda yuqori darajada saqlab qolish uchun temir yo'l infratuzilmasini texnologik modernizatsiya qilish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda moliyaviy resurslarni manzilli va oqilona taqsimlash dolzarb vazifalardandir. Bu borada yangi avlod texnikalarini joriy etish, raqamli boshqaruv tizimlarini kengaytirish va ekologik samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, transport-logistika xizmatlarini zamonaviylashtirish orqali ichki bozor talablariga moslashish hamda xalqaro tranzit koridorlariga faol integratsiya qilish imkoniyatlari kengayadi.

Shuningdek, temir yo'l tarmog'ining iqtisodiy holatini muntazam monitoring qilish, statistik ko'rsatkichlar asosida rivojlanish trayektoriyasini aniqlash va bu jarayonda innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish strategik qarorlar qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Tizimdagi iqtisodiy indikatorlar asosida shakllantirilgan prognozlar esa transport sektorining funksional barqarorligini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishda tayanch vazifasini bajaradi. Shu yo'sinda, temir yo'l transporti mamlakat iqtisodiyotining innovatsion transformatsiyasi va makroiqtisodiy barqarorligiga xizmat qiluvchi eng muhim infratuzilmaviy tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shu sababli, 2017–2023-yillar davomida turli transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmlarini va ularning tuzilmasidagi o'zgarishlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ma'lumotlar asosida temir yo'l tarmog'ining dinamik rivojlanishi, kelajakdagi o'sish istiqbollari va mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan zarur islohotlar aniqlanadi.

Mazkur tahlillar temir yo'l tarmog'i samaradorligini oshirishga, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Quyidagi 1-jadvalda esa 2017–2023-yillar davomida transport turlari bo'yicha yuk tashish hajmlari bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. 2017-2023-yillarda transport turlari bo'yicha yuk tashish¹.

Transport turlari	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021	2022	2023
mln. tonna							
Temir yo'l	67,6	68,4	70,1	70,6	72,0	73,64	73,7
mln. tonna							
Avtomobil	1473,7	1102,2	1177,7	1238,2	1282,0	1261,7	1 322,0
mln. tonna							
Quvur	62,2	72,4	71,9	57,9	66,2	63,5	60,0
ming tonna							
Havo	26,5	13,1	10,4	5,3	9,1	10,1	9,3

2017–2023-yillar davomida temir yo'l transporti orqali yuk tashish hajmi 67,6 mln tonnadan 73,7 mln tonnagacha oshgan. Bu tarmoq umumiy yuk tashish hajmidagi ulushi nisbatan past bo'lsa-da, u energiya sarfi va iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan bir qator afzalliklarga ega. Temir yo'l transporti mamlakatning asosiy iqtisodiy tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashda, uzoq masofalarga yuk tashishda, xususan xomashyo mahsulotlarini yetkazib berishda yuqori samaradorlik ko'rsatmoqda.

Yuk tashish bo'yicha asosiy ulush avtomobil transportiga to'g'ri keladi. 2017-yilda ushbu transport turi orqali 1 473,7 mln tonna yuk tashilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 1 322,0 mln tonnani tashkil etgan.


1 Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси



Avtomobil transportining yetakchi mavqei uning moslashuvchanligi, ko'p turdagi yuklarni tashish imkoniyati va qisqa masofalardagi tezkor yetkazib berish salohiyati bilan izohlanadi. Biroq, bu transport turining asosiy kamchiliklari yuqori operatsion xarajatlar, yoqilg'i sarfining ko'pligi va ekologik zarar yetkazishidir. Ayniqsa, energiya iste'moli yuqoriligi va havo ifloslanishiga ta'siri, uni uzoq muddatli strategiyalarda ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhokamaga sabab bo'lmoqda.

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning 2023-yil ma'lumotlari asosida inventar harakat tarkibining yosh toifalari bo'yicha o'rganilgan tahlil (1-rasm) shuni ko'rsatadiki, mavjud lokomotivlarning katta qismi jiddiy darajada eskirgan. Xususan, elektrovozlar tarkibida jami 44 ta lokomotiv 10 yilgacha bo'lgan yoshda bo'lsa, 12 tasi 10–20 yil oralig'ida foydalanilgan. 20–30 yil davomida ishlatilgan elektrovozlar soni 30 tani tashkil etgan bo'lib, 30 yildan oshgan foydalanish muddatiga ega elektrovozlar soni ham 30 tani tashkil etadi. Bu holat elektr quvvatida ishlovchi lokomotivlar parkining yangilanishi zarurligini yaqqol ko'rsatadi.

Shu sababli, transport tizimi samaradorligini oshirishda nafaqat tashish hajmlari, balki harakat tarkibining texnik holati, ekspluatatsiya muddati va energetik samaradorligini hisobga olgan holda modernizatsiya choralari ko'rilishi zarur (1-rasm).



1-rasm. "O'zbekiston temir yo'llari" AJning inventar harakat tarkibining "yosh" tarkibi², 2023-yil

Teplovozlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, 10 yilgacha bo'lgan foydalanish muddatiga ega teplovozlar soni 45 tani tashkil etadi. 10–20 yil oralig'ida foydalanilgan teplovozlar soni 7 ta bo'lib, ular nisbatan yaqinda ekspluatatsiya muddati boshlangan harakat tarkibiga kiradi. Shuningdek, 20–30 yil foydalanilgan teplovozlar soni 9 tani tashkil etadi. Biroq, asosiy qismi – 99 ta teplovoz – 30 yildan ortiq muddat davomida foydalanilmoqda. Bu esa texnik eskirish darajasi yuqori bo'lgan teplovozlarning yangilanishi dolzarb masalaga aylanganini anglatadi.

Manyovr lokomotivlari bo'yicha esa vaziyat yanada og'ir. 10 yilgacha va 10–20 yil oralig'ida foydalanilgan manyovr lokomotivlari mavjud emas. Faqatgina 20–30 yillik foydalanish tajribasiga ega 12 ta manyovr lokomotivi mavjud bo'lib, ularning ham aksariyati texnik jihatdan yangilanishga muhtoj. Eng jiddiy ko'rsatkich – 30 yildan ortiq muddat davomida foydalanilayotgan 185 ta manyovr lokomotivining mavjudligidir. Bu esa manyovr lokomotivlari parkining deyarli butunlay eskirganini va ularni kompleks ravishda yangilash zarurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi holatlar "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tarkibidagi inventar harakat vositalarining katta qismi jiddiy modernizatsiyani talab qilayotganini isbotlaydi. Xususan, 30 yildan ortiq foydalanilayotgan lokomotivlar ulushining yuqoriligi ularning texnik holatiga, ekspluatatsiya xarajatlarga va umumiy tashish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Transport xizmatlari narxi – transport turlari o'rtasidagi raqobatbardoshlik va samaradorlikni belgilovchi asosiy omillardan biridir. Har bir transport turining tarkibiy xarajatlari (yoqilg'i, texnik xizmat, ishchi kuchi, amortizatsiya va boshqalar) uning bozordagi raqobat pozitsiyasini, qulaylik darajasini va rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. Aholi va biznes subyektlari uchun qulay transport turlari, ayniqsa, narx jihatidan ustunlikka ega bo'lganlar, afzalroq tanlanadi.

2018–2023-yillar bo'yicha temir yo'l transportida yuk tashish xarajatlarning tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2 "Ўзбекистон темир йўллари" АЖ маълумотлари.

2-jadval. 2018-2023-yillar bo'yicha temir yo'l transportida yuklarni tashish xarajatlari tarkibi,³ mln.so'm.

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					
		2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Material	229 769	352 742	604 416	434 356	849 292	853 743
2.	Elektr energiyasi	55 934	78 015	110 525	188 104	230 124	235 462
3.	Yoqilg'i	268 127	277 156	410 508	413 922	422 867	418 150
4.	Amortizatsiya	516 094	718 091	1 128 739	1 214 846	1 373 131	1 501 352
5.	Ta'mirlash fondi	80 750	149 651	196 139	260 446	295 069	275 000
6.	Ish haqi fondi	710 505	858 263	1 192 501	1 569 878	1 891 005	2 220 025
7.	Ijtimoiy sug'urta badallari	176 205	211 895	297 040	391 705	226 921	264 345
8.	Boshqa xarajatlar	1 005 540	1 298 219	2 114 563	1 866 021	2 190 619	1 925 457
	Jami	3 042 924	3 944 032	6 054 431	6 339 278	7 479 028	7 693 534

2018–2023-yillar davomida temir yo'l transportida yuk tashish bo'yicha umumiy xarajatlar oshgani kuzatilgan. Materiallar bo'yicha xarajatlar 2018-yilda 229 769 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 853 743 mln so'mga yetgan. Elektr energiyasi xarajatlari ham 2018-yilda 55 934 mln so'mdan 2023-yilda 235 462 mln so'mgacha oshgan bo'lib, bu energiyaga bo'lgan ehtiyoj ortgani va uning narxi o'zgargani bilan izohlanadi.

Shuningdek, yoqilg'i xarajatlari 2018-yilda 268 127 mln so'm bo'lib, 2023-yilda 345 573 mln so'mgacha ortgan. Bu esa transport vositalari uchun yoqilg'i xarajatlarini kamaytirish zarurligini ko'rsatadi. Amortizatsiya xarajatlari esa keskin o'sishni namoyon etgan: 2018-yilda 56 096 mln so'm bo'lgan xarajatlar 2023-yilda 1 501 352 mln so'mga yetgan. Bu esa asosiy vositalarning eskirayotgani va ularni yangilash ehtiyoji kuchayganini anglatadi. Ta'mirlash fondiga ajratilgan mablag'lar ham yildan-yilga sezilarli ortib borgan: 2018-yilda 80 750 mln so'm bo'lgan bu ko'rsatkich 2023-yilda 255 069 mln so'mga yetgan.

Jami xarajatlar 2018-yilda 3 042 924 mln so'mdan 2023-yilda 7 693 534 mln so'mgacha ko'paygan. Bu holat xarajatlarning barcha turlari bo'yicha o'sganini ko'rsatadi va transport sohasida xarajatlarni optimallashtirish zarurligini anglatadi. Ushbu o'sish energiya sarfini kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish orqali xarajatlarni kamaytirish bo'yicha islohotlar joriy etishni taqozo etadi.

“O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyati tomonidan har yili iste'mol qilinadigan dizel yoqilg'isi hajmi qariyb 100 ming tonnani tashkil etadi. Ushbu hajmning 65 ming tonnadan ortig'i poezdlarni tortishda sarflanadi, qolgan qismi esa investitsiya loyihalarini amalga oshirish va korxonalar ehtiyojlarini qoplashga yo'naltiriladi. So'nggi yillarda yoqilg'i-moylash materiallari narxi sezilarli darajada – 3,3 baravargacha oshgani kuzatilgan. Xususan, 2022-yil 1-yanvardan boshlab bir tonna dizel yoqilg'isi narxi 47 foizga ko'tarilgan.

Transport xarajatlari tarkibida eng katta ulushlardan birini xodimlarga to'lanadigan ish haqi tashkil etadi. Bu ko'rsatkich jami xarajatlarning 22–25 foizini tashkil qiladi. 2023-yil 1-sentyabr holatiga ko'ra, asosiy xodimlar soni taxminan 51 ming nafarni tashkil etgan. Ish haqlari esa 2019-yildan buyon 200 foizga oshgan. Bu esa mehnatga haq to'lash bo'yicha xarajatlar sezilarli ravishda ortganini anglatadi. Temir yo'l transportida narxlarining yillik o'sishi qayd etilgan bo'lsa-da, ichki tashishlar uchun tariflar oxirgi marta 2019-yilning mart oyida oshirilgan. Bu holat esa hozirgi xarajatlarni to'liq qoplashda muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, temir yo'l transporti faoliyatining ayrim turlari – infratuzilma, magistral temir yo'l tarmog'i xizmatlari, elektr ta'minoti tizimlari va qurilmalari, lokomotiv xo'jaligi va boshqa yo'nalishlar texnologik sabablarga ko'ra monopol holatda saqlanib qolmoqda. O'zbekistonda temir yo'l transporti tizimini qayta tashkil etish ushbu tarmoqda sifatli boshqaruvni ta'minlash va optimal bozor tuzilmasini shakllantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Quyida temir yo'l transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishga doir imitatsion model taklif etilgan (2-rasm).

3 “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ маълумотлари.

2-rasm. Temir yoʻl transport tizimini iqtisodiy rivojlantirishning imitatsion modeli⁴

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, temir yoʻl transporti tizimini rivojlantirishda imitatsion modellardan foydalanish jarayonlarni tizimli tahlil qilish, qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish hamda transport tarmogʻini strategik rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu modellar orqali infratuzilmani modernizatsiya qilish, xarajatlarni optimallashtirish, yuk va yoʻlovchi tashish samaradorligini oshirish, shuningdek, transport xizmatlari sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi. Shu bois, imitatsion modellardan samarali foydalanish transport sohasidagi innovatsion rivojlanishning asosiy yoʻnalishlaridan biri sifatida eʼtirof etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. <https://data.worldbank.org/indicator/is.air.good.mt.k1>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 февралдаги «2022-2026 йилларга Ўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли фармони. // www.lex.uz.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлиси Мурожаатномаси. 24 январь 2020 йил.
4. Venables, A. J. (2007). Evaluating Urban Transport Improvements: Cost-Benefit Analysis in the Presence of Agglomeration and Income Taxation. *Journal of Transport Economics and Policy*, 41:173–188 p.
5. Fayzullayev J.S. (2019) Improvement of Economic Efficiency of Development of Railway // *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN: 2249 –0892 Vol9 Issue–2. http://www.ajtmr.com/papers/Vol9Issue2/Vol9Iss2_P9.pdf
6. Fayzullayev, J.S. (2021) «Economic-mathematical model of evaluating the efficiency of the transport system,» *Economics and Innovative Technologies*: No. 1, Article 1. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2021/iss1/1>
7. Зоҳидов А.А. (2018) Марказий осий транспорт тизимини самарали бошқариш механизмини такомиллаштириш. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент.
8. Frederick Starr S., Filat Yildiz, Martina reiser etc. The New Silk roads: Transport and trade in Greater Central Asia. (2007) Monograph Central AsiaCaucasus institute & Silk Road Studies Programm, Washington, D.C.: Johns Hopkins University-SAIS. – 514 p.
9. FayzullayevJ. (2020). Effectiveness of modern methods in the development of the integration transport systems. Архив научных исследований, 1(3). <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3892>
10. Fayzullayev J.S. (2019) Theoretical Aspects of the Transport Logistics System Management // *Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR)* ISSN: 2249–0892 Special Issue–2,. http://ajtmr.com/papers/Sp11ss2/Sp11ss2_8.pdf
11. Fayzullayev J.S. (2021) Problems And Status Of Efficiency Of The Transport And Logistics System In The Railway Network, *Archive of Conferences*: Vol. 13 No.: GTIMSC-2021, <https://www.conferencepublication.com/index.php/aoc/article/view/573>

4 Олиб борилган тадқиқотлар асосида муаллиф томонидан тузилган.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>